



Trasalogik ekspertizaning jinoyatlarni issiq izidan fosh etishdagi ahamiyati

Bahriddinov Muroddin

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar

Vazirligi Akademiyasi 328-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sodir etilgan jinoyat joylaridan topilgan har xil trasalogik izlar va buyumlarning shu jinoyatlarni ochishdagi ahamiyati, umuman olganda trasalogik iz, uning turlari va ularni identifikatsiyasi, trasalogik ekspertiza xulosasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Trasologiya, iz, tagcham izlari, trasalogik izlar va buyumlar, trasalogik ekspertiza xulosasi.

Kirish:

Bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotganini islohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida hukm surayotgan notinch vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar har birimizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga undaydi. Bunday sharoitda uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, korrupsiya kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, ularga keskin zarba berish tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi” Zamonaviy jinoyatchilikning murakkab va ko'p qirrali tus olishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Jinoyatlarni tezkorlik bilan fosh etish va ularning oldini olishda kriminalistik ekspertizalar, xususan, trasalogik



ekspertiza muhim ahamiyat kasb etadi. Trasalogik ekspertiza jinoyat sodir etilgan joyda qolgan izlarni o'rganish orqali jinoyatchining shaxsini aniqlash, jinoyat sodir etish usulini belgilash va boshqa muhim dalillarni to'plash imkonini beradi.

Trasalogik ekspertizaning mohiyati va vazifalari:

Trasalogik ekspertiza — bu jinoyat sodir etilgan joyda qolgan izlar, masalan, oyoq izlari, qo'l barmoqlari izlari, qurol yoki asbob izlari kabi izlarni o'rganish orqali jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlashga qaratilgan sud-ekspertiza turi hisoblanadi. Trasalogik ekspertizaning asosiy vazifalari: izlarni aniqlash, jinoyatchining harakatlarini tiklash, gumon qilinayotgan shaxsni jinoyatdan ozod qilish va jinoyat sodir etishda ishlatilgan vosita yoki usullarni aniqlashdan iborat.

Iz – atrof muhitdagi o'zgarishni baholash va tahlil qilish uchun aniqlangan, mustahkamlangan ekspertiza manbaidir. Izlar o'zlarida mavjud bo'lgan jinoiy-huquqiy axborot va ma'lumotlarning signalli-belgili ifodalovchilaridir.

Trasalogik izlar deganda, atrof-muhitda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan shunday o'zgarishlar tushuniladiki, ular natijasida bir narsaning tashqi tuzilishi boshqasida o'z aksini topadi .

Izlarning hosil bo'lish mexanizmi orqali quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- 1) obyektlarning o'zaro ta'sir hodisasi;
- 2) ta'sir shakli (fizik, kimyoviy, biologik);
- 3) ta'sir yo'nalishi va kuchi;
- 4) iz hosil bo'lish mexanizmi va shartlari;
- 5) iz hosil bo'lishda qatnashuvchi obyektlarning xossalari.

Hodisa joyini ko'zdan kechirishda poyafzalning o'zi, poyafzal tagcharmining izlari, izlar yo'lakchalari, izlarning bir qancha turlari va izlarning hosil bo'lish mexanizmlari uchrashi mumkin, tadqiqot jarayonida ularni aniq ko'rsatib berish maqsadida poyafzal va oyoq izlarining quyidagicha tasniflanishi keltirib o'tilgan:

- 1) shaxsiga ko'ra;



- 2) turiga ko'ra;
- 3) tuzilishiga ko'ra;
- 4) izlarning hosil bo'lish mexanizmiga ko'ra;
- 5) izlarning hodisa joyida joylashishiga ko'ra.

Jinoyatchilikni oldini olishdagi roli:

Trasalogik ekspertiza nafaqat jinoyat sodir bo'lgandan keyin, balki jinoyatchilikni oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Izlarni o'rganish orqali jinoyat sodir etish usullari, joylari va vaqtlari haqida ma'lumotlar to'planadi, bu esa profilaktik choralarni belgilashda yordam beradi.

Issiq izidan fosh etishdagi ahamiyati:

Jinoyat sodir etilganidan so'ng dastlabki tergov harakatlarida trasalogik ekspertiza tezkor va samarali natijalar berishi mumkin. Jinoyat joyida qolgan izlar asosida jinoyatchining kimligini aniqlash, harakat yo'nalishi va uslublari to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

O'zbekiston amaliyotida trasalogik ekspertiza:

O'zbekiston Respublikasida trasalogik ekspertiza huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida keng qo'llaniladi. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Ekspert-kriminalistika bosh markazi trasalogik ekspertizani o'tkazish bo'yicha asosiy muassasa hisoblanadi.

Xulosa:

Trasalogik ekspertiza jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Izlarni o'rganish orqali jinoyatchining shaxsini aniqlash, jinoyat usullarini belgilash va jinoyatlarni issiq izidan fosh etish imkoniyati yaratiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Trasologik ekspertiza” darsligi, Mualliflar jamoasi, Toshkent, 2012.
2. “Sud Trasologiya ekspertizasi”, sudex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2898-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-122-sonli qarori.
5. “Trasologiya ekspertizasi to‘g‘risida tushuncha”, sudex.uz.